

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

HAMROQULOV NURIDDIN SHOKIR O'G'LI

**TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARDA KALSIY VA FOSFOR
ALMASHINUVI BUZILISHLARINING ETIOPATOGENEZI,
PATOMORFOLOGIYASI VA OLDINI OLISH CHORA - TADBIRLARI**

16.00.02–Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi.

Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Hamroqulov Nuriddin Shokir o‘g‘li

Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinushi buzilishlarining etiopatogenezi, patomorfologiyasi va oldini olish chora-tadbirlari.....3

Хамрокулов Нуриддин Шокир угли

Этиопатогенез, патоморфология и меры профилактик и нарушений кальциево-фосфорного обмена у кур яичного направления..... 23

Hamrokulov Nuriddin Shokir ugli

Etiopathogenesis, pathomorphology and prevention of phosphorus-calcium metabolism disorders in laying hens43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works47

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

HAMROQULOV NURIDDIN SHOKIR O'G'LI

**TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARDA KALSIY VA FOSFOR
ALMASHINUVI BUZILISHLARINING ETIOPATOGENEZI,
PATOMORFOLOGIYASI VA OLDINI OLISH CHORA - TADBIRLARI**

16.00.02–Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi.

Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.3.PhD/V96 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Veterinariya ilmiy taddiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Elmurodov Bozorboy Aktamovich

veterinariya fanlari doktori, professor

Eshburiyev Sobir Baxtiyorovich

veterinariya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Dilmurodov Nasriddin Babakulovich

veterinariya fanlari doktori, professor

Soliyev Baxtiyor Chinobudinovich

veterinariya fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:


Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «14 » 09 soyat 1400 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M. Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14325 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «28 » 08 kuni tarqatildi.

(2024 yil «28 » 08 dagi № 10 - raqamli reestr bayonnomasi).



X.B.Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, biol.f.d., professor

T.I.Taylakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, vet.f.d., dotsent

Q.N.Norboev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida parrandachilik jadal rivojlanib borayotgan serdaromad sohalardan biri bo‘lib, parrandalarning serpusht va tez yetiluvchanligi hisobidan oziq–ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu soha ekologik jihatdan toza va sifatli parranda go‘shti, undan tayyorlanadigan parhez go‘sht mahsulotlari, tuxum va pat ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Dunyo aholisining son jihatdan oshib borishi bilan bir paytda go‘sht mahsulotlari yetishtirish va iste’moli bo‘yicha parranda go‘shti ikkinchi o‘rinda turadi. Parranda go‘shti tarkibi jihatidan har xil kimyoviy elementlarga boy bo‘lib, tez hazm bo‘lish xususiyatlariga ko‘ra chorva mollari go‘shtidan ustunlik qiladi. Shu sababli parrandachilik xo‘jaliklaridan tizimli ravishda foydalanish, aholini sifatli parranda go‘shti va tuxum mahsulotlari bilan uzlusiz ta’minlash, ichki va tashqi bozorlarida, mahalliy parrandachilik mahsulotlarini sotishni ko‘paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ko‘pchilik davlatlarida tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar orasida moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari, shu jumladan, kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishi ko‘p qayd etilib, aksariyat hollarda yashirin holda surunkali kechadi. «Chunki tovuqlar organizmida kalsiyga bo‘lgan talab tuxum berish davriga qarab sezilarli darajada o‘zgaradi ya’ni u tovuqlar tuxumga kirishidan 5 kun oldin va to‘liq tuxumga kirgandan 2 kun o‘tgach 4 mg% dan 13 mg% gacha ko‘payishi aniqlangan¹». Kasallik oqibatida tovuqlarda tuxum mahsuldorligining kamayishi, tuxum sifatining buzilishi, oziqalar sarfi va boshqa veterinariya xarajatlarning ortishi kuzatiladi. Shu boisdan mazkur muammoning samarali yechimlarini ishlab chiqish borasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarga alohida etibor qaratilmoqda.

Respublikamizda parrandachilik sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va chuqur tarkibiy o‘zgarishlar natijasida yildan-yilga parrandalar bosh soni ko‘payib, mahsuldorligi oshib bormoqda. Bu borada parrandalarning moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklariga qarshi kurashishga, jumladan, tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining ertachi tashxisi usullari hamda samarali oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Parrandachilik xo‘jaliklari sharoitidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari ko‘pincha, ommaviy tusda kechib, mahsuldorlik va mahsulot sifatining pasayishi, inkubatsion tuxumlarning yaroqsiz bo‘lishi, mahsulot yetishtirish uchun xarajatlarning ko‘payishi hisobiga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Shuning uchun mazkur patologiyaga qarshi kurashishda mavjud umumiyligi oldini olish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish va mahalliy xomashyolardan tayyorlangan

¹ Подобед Л.И. Руководство по кальций-фосфорному питанию сельскохозяйственных животных и птицы: монография // Одесса: «Печатный дом», 2005. – 108-428 с.

arzon va samarali vositalarni amaliyotda qo'llash usullarini ishlab chiqish parrandachilikdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi² farmoni, 2018-yil 13-noyabrdagi PQ – 4015-son «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021-yil 14-iyundagi PQ-5146-son «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2022-yil 24-yanvardagi PQ-100-son «Parrandachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, va 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishini V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlar doirasida bajarilgan.

Muammoning o'r ganilganlik darjasи. Parrandalarning modda almashinuvi buzilishlari, xususan, kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining sabablari, etiologiyasi, kechish xususiyatlari, patologoanatomik o'zgarishlari va oldini olish usullari xorijiy olimlardan Б.Ф.Бессарабов, И.П.Бойковская, В.И.Георгиевский, В.М.Жуков, И.П.Кондрахин, Л.И.Подобед, П.Т.Лебедев, Л.С.Маркин, Н.М.Семенихина, М.Ю.Соколов, В.И.Фисинин, М.Н.Anwar, J.V.Caldas, L.S.David, Respublikamiz olimlaridan D.A.Azimov, Q.N.Norboyev, A.O.Oripov, B.M.Eshburiyev, B.Bakirov, N.B.Dilmurodov, Sh.Z.Doniyorov, H.Nurmamatov, U.A.Raxmonovlar tomonidan o'r ganilgan.

Respublikamizning parrandachilik fermer xo'jaliklari sharoitida tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi, patomorfologiyasi to'liq o'r ganilmagan va ushbu patologiyani oldini olishning samarali usullari yetarlicha ilmiy asoslanmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaliari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston fanlar akademiyasi qoshidagi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti va Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining PZ-202012254 «Xitozan metallokoplekslari asosida parrandalar osteoporoz va osteomalyasiya kasalligining oldini olish va davolash uchun preparatlar olish texnologiyasini

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi² PF-60-sonli Farmoni.

ishlab chiqish» (2023-2024 yy.) mavzusidagi ilmiy-amaliy davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi, kechish xususiyatlari, simptomlari va diagnostikasini o‘rganish hamda oldini olish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim parrandachilik xo‘jaliklarida tuxum yo‘nalishdagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini tarqalishi hamda iqtisodiy zararini aniqlash;

tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining etiologik omillari, tovuqlar organizmining to‘yimli va mineral moddalarga nisbatan ehtiyojini qondirilish darajasini aniqlash;

tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining patogenezi, klinik, gematologik ko‘rsatkichlari, reproduktiv organlar va son suyagida kuzatiladigan patologoanatomik o‘zgarishlarni aniqlash;

tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini olishni samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim parrandachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklaridagi tuxum yo‘nalishdagi tovuqlar, qon, suyak, tuxum va ozuqa namunalari, Introvit-A+BC, NOVAMIX, maydalangan tuxum po‘chog‘i, xitozangidroksiapatit preparati olingan.

Tadqiqotning predmeti tajriba o‘tkazilgan xo‘jaliklarning gala sindromatikasi ko‘rsatkichlari, tovuqlarning klinik, gematologik, reproduktiv organlari va son suyaklardagi patomorfologik ko‘rsatkichlari, tovuqlar va tuxumlarning vazni, ratsion tarkibi va to‘yimliligi tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqotlarni bajarishda klinik, morfologik, biokimiyoviy, patomorfologik, refraktometrik, patologoanatomik, ozuqa namunalarini zootexnikaviy tahlil qilish va statistik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari tovuqlar yoshiga va tuxum berish davriga (24 - haftalikda o‘rtacha 43,5 %, 52 - haftalikda 39,5% va 67 - haftalikda 47,8 %) bog‘liqligi aniqlangan;

tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari mahsuldarligining o‘rtacha 11 % ga, tuxumning og‘irligini 7,2 gramga kamayishi, yupqa po‘choqli tuxumlarni - 14,4 % ga, shakli o‘zgargan tuxumlarni - 10,6 % ga ko‘payishi bilan kechishi ilmiy asoslangan;

tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari tuxumdonlar, tuxum yo‘li va follikulalarning atrofiyasi, tuxum yo‘llarining berkilishi, sariqlik peritonitining rivojlanishi va tuxum yo‘li oqsil qismining uzunligi o‘rtacha 10 sm gacha qisqarishi kabi patologoanatomik o‘zgarishlari bilan kechishi aniqlangan;

kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari tovuqlarda son suyaklar distrofiyasi, plastinkalarining 6-12 mkm gacha yupqalashganligi, bir-biridan

yaqqol ajralganligi, suyak plastinkalari va osteoblastlarning atrofiyaga uchraganligi bilan xarakterlanishi ilmiy asoslangan;

kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini olish uchun tovuqlar ratsioniga xitozangidroksiyatit (1/4) preparatidan 10 mg/kg va Introvit-A+BC preparatidan 1000 ml/4000 litr miqdorda qo'shib berish usuli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari ular ratsionidagi kalsiy-fosfor va oqsil-kalsiy nisbatlarining pastligi, to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirilmasligi natijasida kelib chiqishi aniqlangan;

tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini dispanserlash asosida klinik-fiziologik, gematologik va tuxumlarni organoleptik tekshirishlarga asoslanib diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan;

tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari gipogemoglobinemiya, gipoglikemiya, gipokalsiyemiya va gipofosforemiya bilan kechishi, yupqa po'choqli tuxumlar tug'ilishi, tuxum po'chog'inining og'irligini o'rtacha 5,97 g/% ga kamayishi bilan kechishi ilmiy asoslangan;

tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini olish uchun ratsionga xitozangidroksiyatit (1/4) preparatidan 10 mg/kg va Introvit-A+BC preparatidan 1000 ml/4000 litr miqdorda suvga qo'shib berish natijasida tuxum mahsulorligini 18,8 % ga oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning yangi zamonaviy usullardan foydalangan holda o'tkazilganligi, klinik, biokimiyoviy, morfologik, zootexnikaviy uslublardan foydalananish va raqamli ma'lumotlarga statistik ishlov berish, shuningdek, olingan nazariy natijalarining tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, ishning davlat dasturi loyiha doirasida bajarilganligi, shuningdek, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarining mutaxassislar tomonidan tasdiqlab baholanganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tuxum yo'nalishidagi 24, 52, 67- haftalik tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining gipogemoglobinemiya, gipoglikemiya, gipokalsiyemiya va gipofosforemiya bilan kechishi, tuxumning morfologik va sifat ko'rsatkichlarini, tuxum qobig'idagi, tuxum oqi va sarig'i indeksining o'zgarishlari, reproduktiv organlar va son suyaklardagi patomorfologik o'zgarishlarning aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini ertachi diagnostika qilish uchun ular rationslarini tarkibi va to'yimliligi bo'yicha, kalsiy-fosfor va oqsil-kalsiy nisbatlarining tahlil qilinganligi, kasallik paytida gipodinamiya, patlarning hurpayishi va tushishi, alopetsiya, terining yupqalashuvi, toj va sirg'alarining oqarishi kabi simptomlar bilan kechishini aniqlanganligi hamda ushbu patologiyani oldini olishda

qo'llanilgan mahalliy xitozangidroksiapatit (1/4) preparatidan 10 mg/kg va Introvit-A+BC preparatidan 1000 ml/4000 litr miqdorda qo'llash orqali tuxum mahsuldarligini 18,8 % ga oshirishga erishilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi patomorfologiyasi va oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

«Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini olish» bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyatga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 26-martdagi 02/23-198-sun ma'lumotnomasi). Bunda tovuqlarning kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining sabablari, rivojlanishi va kechish xususiyatlari, simptom va sindromlarini o'rganish asosida ertachi diagnostika qilish hamda profilaktika qilishga erishilgan;

tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini ertachi aniqlashda ozuqa ratsionidagi kalsiy-fosfor va oqsil-kalsiy, qondagi kalsiy-fosfor nisbatlarini aniqlash usuli joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 26-martdagi 02/23-198-sun ma'lumotnomasi). Natijada tovuqlarning kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarini klinik namoyon bo'lishiga qadar aniqlash imkoniyati yaratilgan;

tovuqlarning kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilishda xitozangidroksiapatit (1/4) preparatidan oziqaga 10 mg/kg, Introvit-A+BC preparatidan 4000 l suvgaga 1000 ml qo'shib berish usuli ishlab chiqilib veterinariya amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 26-martdagi 02/23-198-sun ma'lumotnomasi). Natijada tovuqlarning kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarining oldini olishning iqtisodiy samaradorligi 8405450 so'mni, bir so'mga xarajatlar qoplami esa 10,69 so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ularning 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 3 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy konferensiya materiallari to'plamlarida nashr etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darjasи, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ohib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma’lumotlarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bobи to‘rt qismga bo‘lingan bo‘lib, mazkur bobning «Tovuqlar organizmida minerallar almashinuvining biologik ahamiyati» deb nomlangan birinchi qismida mineral moddalarni tovuqlar organizmidagi roli bayon etilgan. Ushbu bobning «Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining tarqalishi, iqtisodiy zarari va etiologiyasi» deb nomlangan ikkinchi qismida tovuqlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining sabablari va simptomlarini aniqlash usullari, patogenezi, kechish xususiyatlari, keltiradigan iqtisodiy zarari, mahsuldorlikning turli fazalarida kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining tarqalishi, kasallikning kelib chiqishiga ta’sir qiluvchi omillar to‘g‘risida olimlarning tadqiqot natijalari keltirilgan.

«Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining simptom, sindiromlari va patomorfologiyasi» deb nomlangan uchinchi qismda tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishida kuzatiladigan klinik belgilari, kasallikning kechish darjasи va kasallikdan nobud bo‘lgan parrandalarning ichki organlarida kuzatiladigan patomorfologik o‘zgarishlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

«Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining diagnostikasi, davolash va oldini olish» deb nomlangan to‘rtinchи qismda parrandalarda uchraydigan kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini davolovchi preparatlar samaradorligi va guruhli profilaktika qilish usullari to‘g‘risida dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan. Adabiyotlar tahlilining yakuniy xulosasida tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar ratsioniga mahalliy ekologik toza xitozangidroksiyatitni qo‘sib berilganda tuxum berishning turli fazalarida tuxum mahsuldorligi, qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlari, klinik belgilari va son suyakdagi makroskopik ko‘rsatkichlarining o‘zgarib borish xususiyatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlar joyi, obyekti va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, obyekti va usullari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar Samarqand viloyati «Darg‘om parranda fayz» MChJda Ross-308 krossiga mansub xo‘roz va tovuqlarda va Qashqadaryo viloyati «Agro-Lingt parranda» MChJda boqiladigan Loman Braun klassik zotiga mansub

tovuqlarda olib borilgan. Ilmiy tadqiqotlar jarayonida etiopatogenetik tamoyil asosida tovuqlarda kalsiy-fosfor almashinuv buzilishlarini guruhli profilaktika qilish vositalari tanlanib, profilaktik vositalarning tovuqlar organizmiga ta'sirini o'rganish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha 2 bosqichli ilmiy va ilmiy-xo'jalik tajribalari o'tkazildi.

Birinchi bosqich (preparatlar samaradorligini aniqlash bo'yicha) tajribalar uchun 24, 52, 67-haftalik tovuqlar 45 boshdan olinib 4 ta guruh tuzildi, birinchi tajriba guruhdagi tovuqlarga xitozangidroksiapatit (1/4) dan 10 mg/kg ratsionga qo'shib va Introvit-A+BC dan 4000 l suvga 1000 ml qo'shib berildi. Ikkichi tajriba guruhidagi tovuqlar ratsioniga qo'shimcha ravishda uzunligi 5 millimetrdan qilib maydalangan tuxum po'chog'idan (tarkibida 92,3% kalsiy bor) 1 kg miqdori 1 tonna yemga, 4000 litr suvga 1000 ml "Introvit A+BC" preparati qo'shib berildi. Uchunchi tajriba guruhidagi tovuqlar ratsioniga 200 kg yemga qo'shimcha miqdorda 1 kg NOVAMIX (vitamin-minerallarga boy) premiksidan qo'shib berildi. To'rtinchi nazorat guruhidagi tovuqlar xo'jalik ratsioni bilan oziqlantirildi. Preparatlar 40 kun davomida berildi va har 20 kunda bir tekshirishlar olib borildi.

Ikkinchi bosqich (profilaktika bosqich) tajribalar uchun har birda 45 boshdan tovuqlar bo'lgan ikkita guruh tashkil etilib, birinchi tajriba guruhidagi tovuqlarga xitozangidroksiapatit (1/4) dan 10 mg/kg dan ratsioniga va 4000 l suvga 1000 ml Introvit-A+BC preparatidan qo'shib berildi. Ikkinchi guruh nazorat guruh qilib olinib xo'jalik ratsioni bilan boqildi. Tajribalar 40 kun davom ettirildi, tekshirishlar har 20 kunda bir marta amalga oshirildi. Laboratoriya tajribalari 2021-2023 yillar davomida Veterinariya ilmiy tadqiqot institutining «Vetsanitariya va urchitish patologiyasi» va «Mikrobiologiya» laboratoriylarida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **«Mahsuldor tovuqlarni dispanserlash natijalari»** deb nomlangan uchinchi bobida tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuv buzilishlarining klinik belgilari, gematologik ko'rsatkichlari, son suyakdag'i makroskopik o'zgarishlar va tuxumdag'i morfologik ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Tekshirish natijalariga ko'ra "Darg'om Parranda Fayz" MCHJ ga qarashli 24-haftalik tovuqlar ratsionining tahlilga ko'ra almashunuv energiyasini 4 kkal (0,15%), umumiyoqsilni 0,9 g (4,6%), kalsiyni 0,2 g (4,65%) va fosforni 0,05 gramga (4,67%) kamligi, kalsiy va fosfor (Ca:P) nisbati 4:1 ni, oqsil: kalsiy nisbati 4,1:1 ni tashkil qilishi aniqlandi.

52-haftalik tovuqlarning ratsion tahlilga ko'ra almashunuv energiyasining 36 kkal (1,3%), oqsilni 1 gr (4,7%), kalsiyni 0,2 gr (4,3%), va fosforni 0,05 gr (4,3%) ga kamligi, kalsiy va fosfor (Ca:P) nisbati 4:1 ni, oqsil: kalsiy nisbati 4,5:1 ni tashkil qilishi aniqlandi. 67-haftalik tovuqlar ratsionining tahlilga ko'ra almashunuv energiyasining 19 kkal (0,7%), oqsilni 1,1 gr (4,95%), kalsiyni 0,2 gr (4,25%) va fosforni 0,1 gr (8,2%) ga kamligi, kalsiy va fosfor (Ca:P) nisbati 4:1 ni, oqsil: kalsiy nisbati 4,5:1 ni tashkil qilishi aniqlandi va ko'rsatkichlarni meyorga nisbatan kamligi ratsionning balanslashmaganligini, ratsiondag'i kalsiy-fosfor va oqsil-kalsiy nisbatlarini tovuqlarning tuxum berish fazalariga mos emasligi ularda

kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lishi aniqlandi.

“Darg‘om Parranda Fayz” xo‘jaligidagi 24, 52, 67-haftalikdagi 1075 bosh tovuqlarda dispanser tekshirishlar orqali tovuqlarning 44,8 foizida umumiy holsizlanish, toj va sirg‘alarning oqarishi, gipodinamiya, ishtahaning pasayishi, o‘sishdan qolish, oriqlash, mahsuldorlikning pasayishi kuzatilib, 55,9 foizida terining yupqalashishi va quruqlashishi, patlarning hurpayishi, 59,9 foiz tovuqlarda alopetsiya kabi kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlariga xos bo‘lgan klinik belgilar kuzatildi.

“Agro-Lingt Parranda” xo‘jaligidagi 24, 52, 67-haftalikdagi 1478 bosh tovuqlarda dispanser tekshirishlar orqali tovuqlarning 42,3 foizida umumiy holsizlanish, toj va sirg‘alarning oqarishi, gipodinamiya, ishtahaning pasayishi, o‘sishdan qolish, oriqlash, mahsuldorlikning pasayishi kuzatilib, 56 foizida terining yupqalashishi va quruqlashishi, patlarning hurpayishi, 58,9 foiz tovuqlarda alopetsiya kabi kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlariga xos bo‘lgan klinik belgilar kuzatildi. Tovuqlar yoshining 24 haftalikdan 67 haftalikga o‘tgan sari mahsuldorligining ortishi va tovuqlarning mineral moddalarga ayniqsa, kalsiyga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi bilan ratsionda kalsiyni yetarlicha taminlanmasligi oqibatida 24 haftalik tovuqlarda 52 haftalik tovuqlarga qaraganda toj va sirg‘alarning oqarishi 4,3 foizga, patlarning hurpayishi 4,4 foizga va alopetsiya 32,5 foizga ko‘p uchrashi aniqlandi.




1-rasm. Tajribadagi tovuqlarning klinik ko‘rsatkichlari.


Tekshirishlar davomida 24 haftalikdan 67 haftalikgacha bo‘lgan davrda tovuqlarning qoni biokimyoviy tahlil qilinganda 24 haftalikda gemoglobin miqdori

o‘rtacha $96,7 \pm 2,5$ g/l (meyorda 80-120 g/l) ni, glyukoza $5,46 \pm 0,43$ mmol/l (meyorda 4,8-6,2) ni, qon zardobidagi umumiy oqsil $48,2 \pm 0,14$ g/l (meyorda 42,8-52,4) ni, umumiy kalsiy $3,12 \pm 0,4$ mmol/l (meyorda 2,5-4,5) ni, anorganik fosfor $2,31 \pm 0,1$ mmol/l (meyorda 1,5-2,5) ni tashkil qildi. 52 haftalikda gemoglobin miqdori o‘rtacha $92,5 \pm 2,3$ g/l ni, glyukoza $5,32 \pm 0,22$ mmol/l ni, qon zardobidagi umumiy oqsil $46,5 \pm 0,22$ g/l ni, umumiy kalsiy $2,86 \pm 0,1$ mmol/l ni, anorganik fosfor $1,84 \pm 0,5$ mmol/l ni tashkil qildi va 67 haftalikda gemoglobin miqdori o‘rtacha $87,4 \pm 1,3$ g/l, glyukoza $4,86 \pm 0,34$ mmol/l, qon zardobidagi umumiy oqsil $42,6 \pm 0,21$ g/l, umumiy kalsiy $2,57 \pm 0,3$ mmol/l, anorganik fosfor $1,58 \pm 0,2$ mmol/l gacha kamayishi xarakterli bo‘ldi.

Tuxum tug‘adigan tovuqlar qonidagi kalsiy va fosfor nisbatlarini tahlil qilish organizmda kalsiy fosfor yetishmovchiligin ertachi aniqlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Darg‘om Parranda Fayz MCHJdagi 24 haftalik tovuqlar qonining kalsiy-fosfor nisbati 1,35:1 ni, 52 haftalikda 1,55:1 ni, 67 haftalikda 1,62:1 ni, Agro-Lingt Parranda MCHJdagi 24 haftalik tovuqlar qonining kalsiy-fosfor nisbati 1,35:1 ni, 52 haftalikda 1,57:1 ni, 67 haftalikda 1,74:1 ni tashkil qildi (meyorda 1,8-2:1). Bu nisbatlar fiziologik holatdagi minimal ko‘rsatkichdan ham kam ekanligi tovuqlar organizmda fiziologik jarayonlar va mahsulot olish uchun yetarli darajada ta’milanmaganligini bildirib, ular organizmda surunkali ravishda kalsiy va fosfor yetishmovchiligin kelib chiqishiga olib keladi. Bu ko‘rsatkichlar esa tuxum tug‘adigan tovuqlarda mahsulorlikni ortishi bilan qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlari meyorlarga nisbatan kamayib borish xarakterli bo‘ldi. Tekshirishlar natijalariga ko‘ra 24 haftalik yoshdagi tovuqlardan olingan tuxumlar soni 989 ta bo‘lib bu 73,3 foizni tashkil qilib shulardan shakli o‘zgargan tuxumlar 13,7 foizni, yupqa po‘choqli tuxumlar 4,2 foizni tashkil qildi.



2-rasm Tovuqlar qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlari



3-rasm. “Darg’om Parranda Fayz” MCHJda boqiladigan tovuq tuxumlarining morfologik tahlili


Tuxumlarning og‘irligi 100 donaga nisbatan o‘rtacha $55,1 \pm 0,4$ grammni, tuxum po‘chog‘ining og‘irligi $5,4 \pm 0,08$ foizni tashkil qildi. Tuxum oqsilining indeksi o‘rtacha $72,1 \pm 0,03$ foizni, tuxum sarig‘ining indeksi o‘rtacha $46,3 \pm 0,72$ foizni tashkil qildi.

Inkubatorga saralab qo‘yilgan tuxumlardan chiqqan jo‘jalar o‘rtacha 68-75 foizni, 52 haftalik yoshdagi tovuqlardan olingan tuxumlar soni 1138 ta bo‘lib bu 84,3 foizni tashkil qilib, shulardan shakli o‘zgargan tuxumlar 18,6 foizni, yupqa po‘choqli tuxumlar 14,4 foizni tashkil qildi. Tuxumlarning og‘irligi 100 donaga nisbatan o‘rtacha $59,1 \pm 0,21$ grammni tashkil qildi, tuxum po‘chog‘ining og‘irligi o‘rtacha 100 donaga nisbatan $6,5 \pm 0,07$ foizni tashkil qildi.



4-rasm. “Darg’om Parranda Fayz” MCHJga qarashli tovuq tuxumlarining morfologik o‘zgarishlari

Tuxum oqsilining indeksi o‘rtacha $88,1 \pm 0,23$ foizni, tuxum sarig‘ining indeksi $49,1 \pm 0,61$ foizni tashkil qildi. Inkubatorga saralab qo‘yilgan tuxumlardan chiqqan jo‘jalar o‘rtacha 70-82 foizni, 67 haftalik yoshdagи tovuqlardan olingan tuxumlar soni 1196 ta bo‘lib bu 88,6 % ni tashkil qilib shulardan shakli o‘zgargan tuxumlar 24,3 % ni, yupqa po‘choqli tuxumlar 18,6 foizni tashkil qildi.



5-rasm. Tovuqlarning kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarida son suyagidagi morfologik o‘zgarishlari

Tuxumlarning og‘irligi 100 donaga nisbatan o‘rtacha $62,3 \pm 0,87$ grammni, tuxum po‘chog‘ining og‘irligi $6,5 \pm 0,07$ foizni tashkil qildi. Tuxum oqsilining indeksi o‘rtacha $94,6 \pm 0,21$ foizni, tuxum sarig‘ining indeksi $46,7 \pm 0,47$ foizni tashkil qildi. Inkubatorga saralab qo‘yilgan tuxumlardan chiqqan jo‘jalar 75-85 foizni tashkil qildi.

Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarning kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarida son suyaklaridagi o‘zgarishlar tahliliga ko‘ra “Darg’om parranda fayz” MCHJga qarashli 24-haftalik tovuqlarda son suyagi uzunligi $8,8 \pm 0,1$ sm, og‘irligi $10,8 \pm 0,2$ gr, suyak distal qismining diametri $8,8 \pm 0,1$ mm, suyak g‘ovak qismining diametri $5,6 \pm 0,4$ mm va suyak qattiq qismining qalinligi $3,2 \pm 0,3$ mm ni tashkil qildi.

Shunga mos holda 52-haftalik tovuqlarda son suyagining uzunligi $9,6 \pm 0,3$ sm, og‘irligi $11,5 \pm 0,1$ gr, suyak distal qismining diametri $8,3 \pm 0,2$ mm, g‘ovakning diametri $5,3 \pm 0,1$ mm, suyak qattiq qismining qalinligi $3,0 \pm 0,2$ mm ni, 67-haftalik tovuqlarda son suyagining uzunligi $10,2 \pm 0,2$ sm, og‘irligi $13,2 \pm 0,3$ gr, suyak distal

qismining diametri $7,9 \pm 0,1$ mm, g'ovak qismining diametri $5,1 \pm 0,3$ mm, suyak qattiq qismining qalinligi $2,8 \pm 0,5$ mm ni tashkil qilishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi «**Tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining oldini olish**» deb nomlangan bobida tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini oluvchi vositalarni tanlash, ularni tovuqlar organizmiga ta'sirini o'rghanish maqsadida "Darg'om Parranda Fayz" MCHJda o'tkazilgan tajribalar natijasi keltirilgan.

Birinchi tajriba guruhidagi tovuqlar ratsioniga qo'shimcha ravishda "Xitozangidroksipatit" 1/4 (Xz/Ga) dan 10 mg/kg dan va "Introvit-A+BC" preparatidan 4000 litr suviga 1000 ml dan qo'shib berildi.

Ikkinci tajriba guruhidagi tovuqlarga xo'jalik ratsioniga qo'shimcha ajratib olingen tuxum po'choqlari yuvib quritilgandan so'ng kattaligi 2-3 mm dan qilib maydalangan holda 1 tonna yemga 1 kg tuxum po'chog'i va "Intrirot-A+BC" preparatidan 4000 litr suviga 1000 ml dan qo'shib berildi. Uchinchi tajriba guruhidagi tovuqlarga xo'jalik ratsioniga qo'shimcha NOVAMIX preparatidan 100 kg yemga 1 kg hisobida qo'shib berildi. To'rtinchi nazorat guruhidagi tovuqlar faqat xo'jalik ratsionida oziqlantirildi. Tajribalar 40 kun davomida olib borildi. Tajribalar davomida tovuqlar har 20 kunda bir marta klinik, gematologik va tuxumlarni organoleptik tekshirishlardan o'tkazib turildi.

Tajribalarning boshida barcha guruhdagi tovuqlarda klinik tekshirishlar natijasiga ko'ra toj va sirg'alarining oqarishi, patlarning hurpayishi, alopetsiya, semizlik darajasining o'rtadan pastligi, tovuqlarda tashqi ta'sirotlarga javob reaksiyasining pasayishi kabi simptomlar kuzatildi.

Tajribalar davomida bu holatlarning tajriba guruhlarida ijobiy tomonga o'zgarishi qayd etilgan bo'lsa, nazorat guruhida tajriba boshida aniqlangan simptomlar takrorlanishi kuzatildi. Bundan ko'rinib turibdiki, tovuqlarda tuxum mahsuldarligining ortib borishi bilan ularda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining chuqurlashib borishi kuzatildi.

Tajribadagi tovuqlardan olingen qon namunalarida tekshirishlar boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan tajribalarning oxiriga kelib gemoglobin miqdorining o'rtacha 21,1 g/l, glyukozani 1,38 mmol/l, umumiyoqsil 9,4 g/l, umumiyoqsil 2,06 mmol/l, anorganik fosforni 0,75 mmol/l, ikkinchi tajriba guruhida gemoglobin miqdorining o'rtacha 3,2 g/l, glyukozani 0,72 mmol/l, umumiyoqsilni 3,6 g/l, umumiyoqsilni 1,5 mmol/l, anorganik fosforni 0,28 mmol/l ga, uchinchi tajriba guruhida gemoglobin miqdorining o'rtacha 6,2 g/l, glyukozani 1,21 mmol/l, umumiyoqsil 6,6 g/l, umumiyoqsilni 1,16 mmol/l, anorganik fosforni 0,43 mmol/l ga ko'payishi ($P < 0,05$) xarakterli bo'ldi (№1-jadval).

Nazorat guruhidagi tovuqlarda tekshirishlarning boshidagi ko'rsatkichlariga nisbatan tekshirishlarning oxiriga kelib gemoglobin miqdorining o'rtacha 10,6 g/l, glyukozani 0,28 mmol/l, umumiyoqsilni 2,3 g/l, umumiyoqsilni 0,37 mmol/l va anorganik fosforni 0,26 mmol/l ga ($P < 0,05$) kamayishi bilan xarakterli bo'ldi.

Tajribalar mobaynida tovuqlardan olingen tuxumlarni organoleptik tekshirishlar natijalariga ko'ra tajribalar boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan

tajribalar oxiriga kelib birinchi tajriba guruhidagi tovuqlarning tuxum mahsuldorligi o‘rtacha 13,4 foizga, tuxumlarining og‘irligi 9,7 grammga, tuxum po‘chog‘ining og‘irligi 2,4 grammga ko‘payishi kuzatildi va yupqa po‘choqli hamda shakli o‘zgargan tuxumlar uchramadi va inkubatsiyaga qo‘yiladigan tuxumlar 98-100 foizni tashkil etdi.

№1- jadval


Tajribadagi tovuqlar qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlari (n=45)

Guruhsiz	Tekshirishlar vaqtini	Gemoglobin, g/l	Glyukoza, mmol/l	Umumiyoqsil, g/l	Umumiylashtirish, mmol/l	Anorganik fosfor, mmol/l
1-tajriba	Tajribalar boshida	95,3±1,5	4,72±0,5	42,8±0,12	2,42±0,3	1,68±0,1
	20-kunda	98,2±1,1	5,41±0,2	48,8±0,18	3,85±0,5	1,84±0,2
	40-kunda	116,4±1,3	6,1±0,1	52,2±0,36	4,48±0,2	2,43±0,2
2-tajriba	Tajribalar boshida	96,4±1,6	4,74±0,2	44,6±0,20	2,86±0,6	1,62±0,2
	20-kunda	97,1±1,2	5,38±0,3	46,9±0,21	3,65±0,5	1,76±0,3
	40-kunda	99,6±1,5	5,46±0,1	48,2±0,32	4,36±0,3	1,90±0,1
3-tajriba	Tajribalar boshida	94,2±1,8	4,62±0,2	43,6±0,12	2,12±0,1	1,48±0,2
	20-kunda	96,2±1,4	5,41±0,1	45,8±0,24	3,15±0,1	1,64±0,3
	40-kunda	100,4±1,4	5,83±0,5	50,2±0,44	3,28±0,2	1,91±0,1
4-nazorat	Tajribalar boshida	97,2±2,4	4,70±0,3	42,6±0,23	2,25±0,4	1,64±0,1
	20-kunda	92,5±2,1	4,66±0,5	42,8±0,14	2,01±0,3	1,57±0,4
	40-kunda	86,6±2,5	4,42±0,4	40,3±0,20	1,88±0,2	1,38±0,1

